O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING
QARORI

2024-yil 15-avgust | 433-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-sonli qarori hamda Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati kengashining 2024-yil 2-avgustdagi VI-69-77-11-0-K/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-422-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 16-yanvar kuni o‘tkazilgan 4-sonli bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 28-, 147- va 148-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati kengashining 2024-yil 2-avgustdagi VI-69-77-11-0-K/24-sonli qarorida maqsadli byudjet ssudalaridan muddati o‘tgan qarzdorliklar uchun respublika byudjetiga yechib olingan manbasiz xarajatlarni qoplash choralarini ko‘rish belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-sonli qarorining 11-bandida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlar bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlaridan qarzdorlik yoki (va) mahalliy byudjetlarning O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti oldida byudjet ssudalari bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik qoplanmasdan tegishli mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari mablag‘larini boshqa maqsadlarga yo‘naltirish taqiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2024-yil uchun tasdiqlangan parametrlari doirasida samarasiz va tegishli hisobot davrida foydalanilmagan xarajatlari 1 va 2-ilovalarga muvofiq shahar va tumanlar mahalliy byudjetlari hamda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning xarajatlar smetasidan maqbullashtirilgan holda jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlar bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlaridan qarzdorlikni hamda maqsadli byudjet ssudasidan muddati o‘tgan qarzdorlik uchun respublika byudjetiga yechib olingan manbasiz xarajatlarni qoplashga yo‘naltirilsin.

4. Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev) mazkur qarorga muvofiq maqbullashtiriladigan mablag‘larni 5 591,0 mln.so‘mini jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlar bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlaridan mavjud qarzdorlikni qoplash uchun viloyat hokimligi huzuridagi markazlashtirilgan jamg‘armaga yo‘naltirish va 5 577,0 mln.so‘mini byudjet ssudasidan qarzdorlikni qoplash uchun hamda qo‘shimcha yuzaga kelgan xarajatlar uchun Farg‘ona viloyati hokimligiga 205,0 mln.so‘mi va viloyat hokimligi “Qabullar uyi”ga 218,0 mln.so‘mini yo‘naltirilishini ta′minlasin.

5. Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar, shahar va tumanlar hokimliklari 2024-yil uchun mahalliy byudjet parametrlarida ko‘zda tutilgan xarajatlardan maqsadli foydalanish, bunda birinchi navbatda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan xarajatlarni, jumladan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, tashkilotni saqlash uchun zarur bo‘lgan birinchi darajali xarajatlarni amalga oshirish lozimligiga alohida e′tibor qaratish hamda samarasiz xarajatlar va shtat birliklarini qisqartirish choralarini ko‘rib borsinlar.

6. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov Xalq deputatlari viloyat kengashi kotibiyati (Sh.Karimov) mazkur qaror asosida maqbullashtirilgan va qayta yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida hisobotni Xalq deputatlari viloyat kengashining navbatdagi sessiyasiga kiritilishini nazoratga olsin

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 15-avgustdagi
433-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Жисмоний ва юридик шахсларга етказилган мулкий зараларлар бўйича компенсация тўловларидан мавжуд қарздорлик ҳамда республика бюджетидан ажратилган ссуда маблағларини қоплаш мақсадида шаҳар ва туманлар маҳаллий бюджетидан мақбуллаштириладиган харажатлар

минг.сўмда

№	**Ҳудуд номи** (маҳаллий бюджетлар)	**Жами мақбуллаш тириладиган харажатлар**
1	Қўқон шаҳар	1 000 000
2	Марғилон шаҳар	400 000
3	Бағдод тумани	81 728
4	Бувайда тумани	148 000
5	Бешариқ тумани	700 000
6	Қува тумани	760 355
7	Учкўприк тумани	332 368
8	Риштон тумани	1 541 898
9	Сўх тумани	500 000
10	Тошлоқ тумани	80 132
11	Ўзбекистон тумани	454 700
12	Фарғона тумани	198 815
13	Данғара тумани	624 752
14	Фурқат тумани	410 055
15	Ёзёвон тумани	201 996
16	Қўштепа тумани	200 436

Жами	**7 635 235**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 15-avgustdagi
433-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Вилояти маҳаллий бюджетидаги самарасиз харажатларни мақбуллаштириш ҳисобига республика бюджетидан олинган ссуда маблағларни қайтаришга йўналтирилган маблағлар миқдори

минг сўмда

№	Ҳудудий маблағ тақсимловчилар	Мақбуллаштирилган маблағ
Харажатлар миқдори, Жами		**3 956 760,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**3 956 760,0**
1	**Олий таълим, фан ва инноватциялар бошқармаси**	**1 087 750,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**1 087 750,0**
	Касб-ҳунар мактаблари	1 087 750,0
2	**Соғлиқни сақлаш бошқармаси**	**265 400,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**265 400,0**
	шундан:	
	Вилоят соғлиқни сақлаш бошқармаси тасарруфидаги вилоят муассасалари	265 400,0
3	**Маданият бошқармаси**	**244 433,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**244 433,0**
	шундан:	
	Маданият бошқармаси тасарруфидаги маданият муассасалари	244 433,0

4	**Ёшлар сиёсати ва спорт бошқармаси**	**106 708,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**106 708,0**
	шундан	
	Вилоят спорт муассасалари	106 708,0
5	**Ўрмон хўжалик бошқармаси**	**25 000,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**25 000,0**
6	**Экология ва атроф муҳитни ҳимоя қилиш ва иқлим ўзгариши бошқармаси**	**16 500,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**16 500,0**
	Экология ва атроф муҳитни ҳимоя қилиш бошқармасини сақлаш харажатлари	16 500,0
7	**Вилоят адлия бошқармаси**	**22 487,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**22 487,0**
	шундан:	
	Архив муассасаларини сақлаш харажатлари	22 487,0
8	**Давлат ҳокимият органлари (Фарғона вилояти ҳокимлиги)**	**2 124 882,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**2 124 882,0**
	шундан:	
	Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари ходимларининг малакасини ошириш ўқув курси	7 000,0
	Ахборот кутубхона маркази	63 882,0
	Иссиқлик таъминоти корхоналарига субсидия харажатлари	2 054 000,0
9	**Ўсимликлар карантини ва ҳимояси бошқармаси**	**63 600,0**
	шу жумладан:	

	жорий харажатлар	**63 600,0**
	шундан:	
	Фарғона вилояти Чигиртка ва тут парвонасига қарши курашиш хизмати	25 000,0